

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qirg'izistonda bo'ldi



O
z
b
e
k
i
s
t
o
n
R
e
s
p
u
b
l
i
i

kasi Fanlar akademiyasi vitse prezidenti B.Ibragimov hamda FA tasarrufidagi turli ilmiy tadqiqot institutlaridan vakillar joriy yilning 5-9 sentyabr kunlari Qirg'iziston Respublikasida bo'lib o'tgan Xalqaro ilmiy amaliy seminarda ishtirok etishdi.

Seminarda moddalar tarkibi va yadro energetikasi muammolarini o'rganishning zamonaviy ob'ektiv usullari, o'rta asrlarda Markaziy Osiyo olimlarining matematika ilmi-fan rivojiga qo'shgan hissasi, mintaqaning biologik xilma-xilligini saqlash va mahalliy o'simliklarga asoslangan farmakologiyaning rivojlanish istiqbollari mavzulari muhokama qilindi.

Hususan, Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi raisi A.Mirzaev Qizilqum sahrosida noruda foydali qazilmalarini qazib olish istiqbollarini kvarts tuprog'i misolida gapib berdi. Tinglovchilarda Navoiy viloyati Tomdi tumanidagi 13,5 mln. tonna zaxirsaiga ega Djeroy koni hamda uning kvarts qumlarini pulsatsion kolonnalari yordamida sutkasida 1 tonna rudani boyitish fabrikasi loyixasi juda katta qiziqish uyg'otdi. Ushbu kolonnaning Navoiy bo'limida patenti mavjud bo'lib, u xozir foydalanayotgan flotatsion mashinadan ko'ra raqobatbardoshdir.

Bundan tashqari, O'zbekistonlik vakillar Qirg'iziston Respublikasining "Social Tree" jamoat birlashmasi kompaniyasining pavlovnija plantatsiyasiga tashrif buyurishdi. Pavlovnijani nafaqat ekzotik daraxt, balki ekologlarning xozirdagi xazinasidir, negaki u nafaqat changni o'zida yutadi balki u boshqa o'simliklik daraxtlarga nisbatan karbonat angidridni qayta ishlashi yuqoridir. U tez suratda o'sish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lib, yiliga o'rtacha 4,5 metr o'sadi. Uning yog'ochi yengil, shunga qaramasdan tarkibi juda zich bo'lib, undan mebel va qurilish materialarida keng qo'llaniladi. Katta barglari esa uy xayvonlariga yemish hisoblanadi. Qirg'iziston tadbirkorlari tomonidan toshloq lalmi yerlarda ekilgan bo'lib, tomchilatib sug'orish texnolgiyasidan foydalanidi. Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limida pavlovnija o'simligiini Nurota tumanida yetishtirish bo'yicha yozilgan loyiha mavjud bo'lib, ushbu loyihani Qirg'iziston vakillarga hamkorlik qilish uchun taqdim etildi.

Xalqaro seminar tadbir yakunida ikki tomonlama, ya'ni O'zbekiston hamda Qirg'iziston o'rtasida ilmiy hamkorlik qilishiga kelishildi.